

O‘SIB KELAYOTGAN YOSH AVLODGA HOZIRGI KUNDAGI
ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING
SALBIY VA IJOBIY TA’SIRI

Gulxanova Fotima Akramjon qizi

SamDU talabasi

gulxanovafotima@gmail.com

+998990630836

Samarqand Davlat Universiteti talabasi

Annotatsiya: Bolalarga ko‘proq ma‘naviy bilim berishni ta‘minlash, ota-onalar o‘z farzandlarining kelajagiga befarq bo‘lmasliklari, bolalarni bo‘sh vaqtlarini unumli tashkil etish, ularni mobil aloqaga bog‘lanib qolmasligi uchun turli xil usul va metodik yo‘llar o‘ylab topishlari va bolalar hayotida amaliy qo‘llashlari lozim.

Abstract: It is necessary to provide children with more spiritual knowledge, parents should not be indifferent to the future of their children, organize children’s free time efficiently, think of various methods and methodological ways and apply them practically in children’s lives.

Kalit so‘z: Tarbiya, mobil vositalar, ota-ona va farzand munosabati, kitob bilan oshnolik.

Keyword: Education, mobile devices, parent-child relationship, familiarity with books.

Bugungi kunga kelib barchamizning hayotimiz davomida uchraydigan dolzarb mavzulardan biri o‘sib kelayotgan yosh avlodning uyali aloqa vositalari va mobil aloqa qurilmalariga bog‘lanib qolganidir. Bola hali to‘liq gapirishni o‘rganmasdan telefon, kompyuter va shu kabi gadjetlarga o‘zi bilmagan, anglamagan holda bog‘lanib uning olamidani chiqolmay qolmoqda. Ota-onalar ham bolani tinchlantirish uchun, o‘z halovatini o‘ylagan holda farzandlarini mobil aloqa turlariga mahkum qilib qo‘ymoqda. Albatta, bola bu paytda nazoratdan chetda qoladi. Yoshiga mos bo‘lmagan, umuman to‘g‘ri kelmaydigan foto, vediolavhalar va har xil turdagi o‘yinlar bilan mashg‘ul bo‘lib qolmoqda. Bolalarning o‘qishi, bilim olishi va o‘z kelajagini o‘zi xohlagan holda qura olishi uchun yetarlicha shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Lekin bolalarning ana shunday o‘z yo‘lini topadigan, tanlaydigan vaqtida ba‘zi ota-onalarning farzandlariga nisbatan bo‘lgan befarqligi bizning eng katta fojiamizdir.

Shu bilan bir qatorda tangananing ikkinchi tarafini olib qaraydigan bo‘lsak, texnikalarning biz uchun ijobiy taraflari ham yetarli darajada. Internet rivojlanayotgan ayni hozirgi zamonda istagan ma‘lumotimizni istagan paytimizda internet tarmoqlaridan topa olamiz va o‘zimiz uchun manba sifatida foydalana olamiz. Dunyoning narigi

chekkasidagi yaqinlarimiz, do‘stlarimiz bilan bermalol muloqotda bo‘la olamiz. Tan olib aytishimiz kerakki, uyali va mobil aloqa vositalarining qulayliklari talaygina. Lekin yoshlardagi internet madaniyatining pastligi sababli ulardan noto‘g‘ri maqsadlarda foydalanish insonning dilini siyoh qiladi.

Hozirgi zamon talablariga binoan tezkor aloqalarni biz xohlaymizmi yoki yuq har bir insonning xoh u katta yoshli, xoh kichik yoshdagi maktab o‘quvchisi bo‘lsin ularning qo‘lida ko‘rishimiz va ular bu uyali aloqalarni xohlagan usulda xohlagan mavzuni topa olishda qo‘llamoqdalar. Xuddi shunga o‘xshash har ikki tomonni kesadigan pichoq yanglig‘, yaxshilik uchun ham, yomonlik uchun ham foydalanish mumkin bo‘lgan telefonning o‘ziga yarasha odoblari, uni ishlatishda zarur bo‘lgan tavsiyalar mavjud. Bu tavsiyalardan biri quyidagicha: Mobil aloqa orqali kerak yoki kerakmas narsalar to‘g‘risida ko‘p gaplashmaslik. Ayrim insonlar uyqudan turgan va yoki taom tanavvul qilish paytimi farqi yuq telefonsiz turolmaydi, xuddiki u endi tug‘ilgan chaqaloq misol o‘z onasidan ayrila olmaydigan go‘dakka o‘xshaydi. Buni biz hozirgi kunda keng ko‘lamda tarqalgan yuqumli kasallik desak hech mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu narsalar inson sog‘lig‘iga zarar bo‘lish bilan birgalikda o‘z vaqtining isrofi hamdir.

Bolalarni bu yuqumli, tuzalmas kasallikdan qutqarish, uni bu yo‘ldan qaytarish albatta birinchi o‘rinda ota-onaning, o‘qiruvchining, yaqin insonlarning vazifasi va burchidir. Bunday paytda ota-ona yoki o‘qituvchi mobil yoki uyali aloqaning o‘zidan foydalangan holda bolalarni kitobga oshno qilishi, qiziqtirishi va o‘z sohasiga yo‘naltira olishi kerak. Bundan tashqari bolani telefon, kompyuter texnikalaridan oz bo‘lsada cheklash uchun ota-onalar ularni turli xil sport mashg‘ulotlari, matematik mashg‘ulotlar bilan butun kunini emas ma‘lum bir qismini shu kabilar bilan band qilib bo‘sh vaqtni iloji boricha qoldirmaslik maqsadga muvofiq. Mobil vositalarning zarari, oqibatlar haqida ular bilan ko‘proq suhbat o‘tkazish, kitob bilan oshno bo‘lishini ta‘minlash kerak. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o‘sib kelayotgan yosh avlod misoli oq qog‘ozlardir. Uning mualliflari esa hech shubhasiz ota-onalar, o‘qituvchilardir. Demak, kimdir bu oq muqovalarni chiroyli tarzda, kimdir esa aksincha to‘ldirib o‘z farzandining kelajagi uchun vositachi bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M. Hazratqulov, Ona tili va o‘qish savodxonligi metodikasi. Darslik – Toshkent : innovatsiya-Ziyo 2022
2. 3-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darslik.- Toshkent 2022
3. Qosimova K, Matchonov S, G‘ulomova X. Va b Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent.: Nashir.2009